



TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATINI O'QITISH SIFATIGA TA'SIRI

Mehmonov M.H.

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Abduraximov Z.A.

magistratura MTYF-6 guruh talabasi
Toshkent Davlat Transport Universiteti

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil
Ma'qullandi: 28-May 2023 yil
Nashr qilindi: 03-June 2023 yil

KEY WORDS

*Nuqt madaniyati, o'qituvchi,
o'quvchi, munosabat, ta'lim,
o'qitish sifati,*

ABSTRACT

Maqolada ta'lim tizimida o'qituvchilarning nuqt madaniyatini o'stirish va shu orqali o'quvchilarning bilim darjasini, ta'lim sifatini oshirish uchun ko'rsatmalar berib o'tilgan.

Ma'lumki, kishining madaniyati uning nutq madaniyatini qay darajada egallaganligi bilan ham o'lchanadi. Nutq madaniyati esa so'zga boy bo'lish va undan nutq vaziyati, mazmuni va maqsadiga muvofiq o'rinli foydalanish, adabiy talaffuz va uslubiyat me'yorlariga, tilning sofliigi va to'g'riligiga qat'iy rioya qilish bilan to'laqonli bo'ladi. Hozirgi kunda nutq so'zlash doirasi (radio, televideniye, ta'lim tizimi va anjumanlardagi ma'ruzalar hamda turli xarakterdagi yig'inlardagi nutqlar) tobora kengayib borayotganligi har bir notiqdan adabiy til me'yorlariga amal qilishni talab qiladi. Bunga esa uzoq vaqt qunt bilan mehnat qilish bilangina erishish mumkin. Bizning davrimizga kelib o'zbek adabiy tili me'yorlari jiddiy yangilandi: so'z qo'llash, grammatika, talaffuz me'yorlari xalq jonli tili xususiyatlari asosida o'zgardi. Shunga qaramasdan, tarixiy shakllangan an'anaviy til hodisalaridan ba'zilar hozir ham ijtimoiy hayotimizda amal qilib kelmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, o'rganilayotgan muammolar faqat nutqqa aloqador bo'lib qolmasdan, tilning barcha darajalari va kategoriyalariga ham taalluqlidir. Binobarin, til madaniyatining katta ahamiyatini faqat professional aspektda emas, balki umumiy sosial aspektda ham ko'rishimiz mumkin. M.V.Lomonosov ayrim kishilarning o'z ona tillarida fikr va tuyg'ularini ifodalash jarayonida qiynalganliklarini o'z ona tillarini "mukammal emas" ("yetuk emas") deb ayblanganliklarini qoralab, bunda ularni o'z ona tillarini qoniqarsiz darajada bilishda, deb baholaydi^[1].

Shu bilan birga o'qituvchilarning nutq madaniyatiga e'tibor qaratish ta'lim tizimida ahamiyatli masalalardan biridir. O'qitish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga biron bir mavzuni yaxshi tushuntirish, o'z fikrlarini aniqlab berish va yetarlicha tushunarli bo'lishi lozim. Agar o'qituvchi yetarlicha fikrini bayon qila olmasa, o'quvchilar darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Haqiqatan ham, o'qituvchilarning nutq madaniyatiga e'tibor qaratish ta'lim tizimida ahamiyatli masalalardan biri dars jarayonidagi o'qituvchi-o'quvchi munosabatlaridir. O'qituvchining o'quvchilarga biron bir mavzuni yaxshi tushuntirishi, o'z fikrlarini aniqlab berishi va yetarlicha tushunarli bo'lishi darsning samaradorligi uchun juda

muhimdir.

O'qituvchining nutq madaniyati, notiqlik san'ati va o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olishi haqida mulohaza yuritishdan oldin til va nutq xususida ayrim ma'lumotlarni eslatish lozim. Nutq madaniyati jamiyat hayoti va madaniyatining o'ta muhim ajralmas tarkibiy qismi, muayyan voqeligi, ko'rinishi sifatida alohida ahamiyatga egadir. U fikr almashish, muomala, so'zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarni o'z ichiga oladi, ularni «boshqaradi», ular orqali voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvvatiga ega bo'ladi. Til va nutq o'zaro dialektik bog'liq ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-psixik xodisalar bo'lib, til aloqa quroli sifatida, nutq esa aloqa usuli sifatida mavjuddir. Nutq - bu til deb ataluvchi, ijtimoiy-individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining ob'ektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan o'zaro zaruriy, doimiy munosabatda namoyon bo'lishidir. Nutq-bu rasmiy tildir. U keng ma'noda so'zlardan, so'z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Madaniy gapirishga intilish tushunchasi barcha xalqlarda qadimdan mavjuddir. Bu tushuncha muayyan lingvistik me'yorlar, etik va estetik talablar bilan aloqador bo'lgan tushunchadir. Demak, nutq madaniyati tushunchasi har bir xalq tili va millat ma'naviyatini belgilovchi (ko'rsatuvchi) etik va estetik kategoriyadir, hodisadir. Nutq madaniyati faqatgina adabiy tilni ongli va maqsadga muvofiq me'yorlashga (uni qayta ishlash va boyitishga) qaratilgan harakatlarga emas, balki millatning umumiy madaniyatini ko'tarish, odamlarda ma'lum «til didi»ni tarbiyalashga xizmat qiluvchi faoliyat hamdir. Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchov(mezon)ga asoslanish kerak bo'ladi. Mana shu o'lchov(mezon) tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi. Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan ar- golar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori (adabiy me'yor) [2].

Umumiy olib aytganda o'qituvchilar quyidagi asosiy nuqtalarga e'tibor qaratishi tavsiya etiladi:

- ❖ Til va so'zlar to'g'risidagi bilim: O'qituvchi tilning qoidalari, so'zlar va so'zlarning izohli lug'atlari haqida yaxshi tushunishga e'tibor qaratishi kerak. Bu o'qituvchining o'quvchilar bilan muhokama qilish, ularga to'g'ri so'zlar va grammatik qoidalarini o'rgatish va tarqatishda yordam beradi.

- ❖ Qiziqishlarni qo'llash: O'qituvchi o'quvchilarni dars davomida qiziqtirish, ularga mavzuni qiziqarli qilishga intilish kerak. Qiziqishlar o'quvchilarning fikrlarini o'zgartiradi va ularni o'rganishni rag'batlantiradi. Bu, o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishga yordam beradi.

- ❖ Mulohazalar va bahslarni oshirish: O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning mulohazalarini, fikrlarini va bahslarini oshirishga intilishi kerak. Bu, o'quvchilarning o'z fikrlarini ifodalash, mantiqiy qarorlar qabul qilish va o'z fikrlarini kuchaytirish imkonini beradi

- ❖ Mazmunli darslar tashkil etish: O'qituvchi mavzuni tushuntirish va ma'lumotlarni o'rganishni yanada qiziqtirish uchun mazmunli darslar tashkil etishi kerak. O'quvchilarning fikrlarini ifodalash, muhokama qilish va ijodiy ishlar qilish imkonini beruvchi mashg'ulotlar, tadqiqotlar va sinovlar foydali bo'ladi.

Fikrlarni yanda davom ettirsak bo'ladi ammo eng muhimi o'qituvchilar shu 4 ta bosqichga: til va so'zlar to'g'risidagi bilim, qiziqishlarni qo'llash, mulohazalar va bahslar oshirish, mazmunli darslar tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratishlari lozim. Bu nafaqat dars jarayonlarida balki jamiyatda ham muhim ro'l o'ynaydi. Jamiyatda nutq madaniyatiga e'tibor qaratish, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi va ta'lim tizimining sifatini oshiradi. Nutq madaniyatiga e'tibor qaratish, o'qituvchilarning o'quvchilarning o'zlarini rivojlantirishida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi va ularga zamonaviy dunyoda muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beradi.

Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks ettiruvchi bir ko'zgudir. Nutq madaniyati adabiy tilning har ikki shakli — yozma va og'zaki shakli uchun zarurdir. Nutq madaniyatiga e'tibor yolg'iz o'qituvchilardan emas, balki har bir fuqarodan ongli ravishda o'zlashtirish talab qilinadigan insoniy fazilatlardan biridir. Nutq madaniyatining va notiqlik san'atiga umumiy, o'xshash tomonlari bor. Har ikkala soha til va nutq, inson nutqi bilan aloqadordir. Har ikkalasi o'qituvchi nutqiy faoliyatining ta'sirchan, chiroyli bo'lishi uchun zarur hodisa bo'lib, uning nutqiy madaniyatini o'stirishga xizmat qiladi. Nutq madaniyati ham, notiqlik san'ati kabi nutqning ma'noliligi, nutqiy go'zallik, nutqiy mantiq qonuniyatlaridan oziqlanadi. Ba'zi shaxslarda uchraydigan notiqlik san'ati og'zaki nutq sohasida shaxsiy qobiliyat va faoliyat tufayli erishiluvchi alohida san'atdir. Nutq madaniyati va notiqlik tushunchalari orasida ba'zi o'xshashlik, umumiy tomonlar bor. Bu har ikkala sohaning pirovard maqsadi, ish faoliyatining mushtarakligida ko'rinadi. Ammo shunga qaramasdan, nutq madaniyati tushunchasi bilan notiqlik tushunchasi aynan bir xil narsa emas. O'qituvchi nutq madaniyati va notiqlik orasidagi ba'zi muhim farqli tomonlarni va belgilarni bilishi lozim. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, malum vaqtgacha, shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qilib kishilar qalbiga qizg'in ta'sir qiluvchi kishilar uchraydi [3].

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim tizimida o'qituvchilarning nutq madaniyati, ularning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda tashabbuskor va o'quvchilarga beradigan ma'lumotlarni tushunadigan tarzda yetkazich o'qituvchilarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib xisoblanadi. Nutq madaniyati o'qituvchilar uchun o'qitish va o'qish jarayonida amalga oshiriladigan amaliyotlarni va odatlarni ifodalaydi. Nutq madaniyati o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytirish, o'quvchilarning o'zlarini ifodalashlarini oshirish va har bir o'quvchining potentsialini rivojlantirishda muhim ahamiyatni kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Elmurodov N. O'qituvchining nutq madaniyati. Darslik. - Samarqand: SamDU nashri, 2004, 140 bet.
2. Omonov H.T., Xo'jaev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat – Toshkent 2007.
3. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: <<IQTISOD-MOLIYA>>, 2011, -420 b.